

ALEKSANDR FAYNBERG IJODIDA BADIY TAFAKKUR VA RUHIY
KECHINMALAR TAHLILI

Maxmudova Sarvinoz Ilhomjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

Umurzakova Oygul Umarovna

Ilmiy rahbar: O'ZDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va

amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Aleksandr Faynberg she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoirning bir nechta she'rlari misolida inson ruhiyati, vatan tuyg'usi, xotira va zamon masalalarining badiiy talqini ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida Faynberg lirikasiga xos obrazlar tizimi, poetik tafakkur, tasviriy vositalar hamda badiiy tilning o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Maqolada shoir ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyati umumlashtirilgan holda baholanadi.

Kalit so'zlar: hissiyot, kechinma, lirika, vatan, muhabbat

Annotation. This article analyzes the ideological and artistic features of Aleksandr Faynberg's poetry. Based on several selected poems, the artistic interpretation of the human inner world, the sense of homeland, memory, and the concept of time is examined. The study highlights the system of imagery characteristic of Faynberg's lyric poetry, poetic thinking, expressive devices, and the distinctive features of his artistic language. The article also provides a generalized assessment of the poet's place and significance in Uzbek literature.

Key words: emotion, experience, lyrics, motherland, love

Аннотация. В статье анализируются идейно-художественные особенности поэзии Александра Файнберга. На примере нескольких стихотворений раскрывается художественная интерпретация внутреннего мира человека, чувства Родины, памяти и времени. В ходе исследования освещаются система образов, характерная для лирики Файнберга, поэтическое мышление, выразительные средства и своеобразие художественного языка поэта. В статье также обобщённо оценивается место и значение творчества поэта в узбекской литературе.

Ключевые слова: чувство, переживание, лирика, Родина, любовь

KIRISH. She'riyat osmonining yorqin yulduzlaridan bo'lmish Aleksandr Arkadayevich Faynberg allaqachon o'zining ta'sirchan, hissiyotga boy she'rlari orqali millionlab yuraklarga yetib borgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgacha uning bir talay she'rlari ko'plab tillarga tarjima qilingan va qilinib kelmoqda. Quyida uning bir qancha she'rlarini taqqoslash orqali undagi jilokorlikni, hissiyotlar uyg'unligini tahlil qilamiz

FAYNBERG NIGOHIDA VATAN MADHI. Barchamizga ma'lumki, Vatan mavzusi jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha shoir va yozuvchilar ijodida nafaqat geografik makon, balki tarix, xotira, mas'uliyat va ruhiy bog'liqlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Shuningdek ushbu keng ko'lamli mavzu iste'dodli shoir, qalami o'tkir ijodkor Aleksandr Arkadayevich Faynberg ijodida ham muhim o'rin egallaydi. Muallifning "Vatan" nomli she'ri so'zimizning yaqqol dalilidir. Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, uning "Vatan" she'ri muallifning O'zbekiston zaminiga bo'lgan chuqur muhabbati, fuqarolik pozitsiyasi va badiiy tafakkurini yaqqol namoyon etadi. Aleksandr Faynberg "Vatan" she'rida yurt tushunchasini balandparvoz shiorlar yoki mavhum timsollar orqali emas, balki real hayot manzaralari asosida ochib beradi. Quyoshli dalalar, tizma tog'lar, teraklar, loysuvoquylar kabi detallar Vatanning tabiiy va ijtimoiy qiyofasini yaratadi. Bu yondashuv she'rga hayotiylik va ishonchlik bag'ishlaydi.

Shoir uchun Vatan — tug'ilib-o'sgan joy emas, balki mehnat qilinadigan, mas'uliyat seziladigan, taqdir bog'langan makondir. Lirik qahramonning dalalarni kezib, yer o'lchashi Vatanni qurish va obod qilish jarayonida faol ishtirok etayotgan inson obrazini yaratadi. Bu holat she'rda Vatan mavzusining ijtimoiy-falsafiy mazmunini kuchaytiradi.

Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to,
Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan –
Yo'llarning girdida bo'lib girgiddon
Gumbazdek teraklar turarlar qator

SHOIR O'YLARIDA MUHABBAT TUYG'USI.

Hech bir shoir yo'qki, biror marta bo'lmasin muhabbat mavzusida qalam tebratmagan bo'lsa. Darhaqiqat, muhabbat har bir shoir-u shuarolarning qalbidan go'yo vulqon kabi otilib chiqadi va dengiz toshqini kabi barcha hissiyotlarni har yonga uloqtiradi. Shu sabab ham aynan shu mavzudagi yaratishlar she'riyat oshnolari uchun qadrli bo'lsa ajab emas. Faynberg ham o'zining barakali ijod yo'lida bir qancha she'rlarini aynan ishq yo'lida ozor chekkan qalblar nomidan bitgan.

Unutma. Bir marta chalinar navo,
Bitsa ham xotirdan o'chmas jarohat.
Unutma. Yurakni tilkalar jafo,
Faqatgina bir bor kelar muhabbat

FAYNBERG NAZDIDA KUZ JILOSI

Vatan, muhabbat mavzularidan so'ng, albatta, ona tabiat fusunkorligi haqida so'z qotsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shoirning she'rlarini o'qir ekanmiz, unda bir necha bor kuz fasliga urg'u berilganligiga guvoh bo'lamiz. Balki, insonning hissiyotlari ham ba'zi onlarda daraxtdan to'kilayotgan yaproqlar singari to'kilishining ishorasidir

Kuzning mo'jizasi – alvonrang shafaq.
Bulutlar poygachi kemadek yuzar –
Oq yelkanlar yuzar janubga ilhaq,

Turnalar galasi ulardan o'zar.

Ushbu misralarda ham oltin kuzning mo'jizasi sifatida alvonrang shafaq madh etilmoqda.

XULOSA.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, shoir barcha she'rlarida , xoh u ona diyor madhi bo'lsin , xoh yor visoli ta'rifi, iste'dodli shoir har bir misrasida badiiy g'oya va ruhiy kechinmalarni uyg'unlashtirgan holda yozgan. Muhimi bu san'atdan to'laligicha bahramand bo'la olishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov Sh. She'riyat tahlili va uslublari, Toshkent 2019
2. Rustam Musurmon. Rus tilidan tarjimalar. Toshkent 2021
3. Tursunov D. O'zbek she'riyatida metafora va ramzlar . - Toshkent 2018
4. Aleksandr Faynberg . Qoralamaga qasida
5. Xudoyberdiyev A. Zamonaviy o'zbek adabiyotida tabiat motivlari